



THE FORMATION OF THE PARADIGM OF MORAL VALUES IN THE PHILOSOPHY OF AVICENNA AND ITS METAPHYSICAL FOUNDATIONS

Dildor Akmalovna Pulatova

Candidate of Philosophical Sciences, Professor Alfraganus University

Professor of the Department of Social Sciences

E-mail: falsafa2009@gmail.com

Tashkent, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: Avicenna, paradigm of moral values, good and evil, practical reason, necessary action, personal perfection, metaphysics, virtue.

Received: 25.12.25

Accepted: 26.12.25

Published: 27.12.25

Abstract: This article analyzes the problem of moral values in the philosophy of Avicenna based on the paradigm of the organic unity of knowledge – belief – virtue – personal perfection. The study interprets morality not as a set of isolated rules or external norms of behavior, but as an integral philosophical system that ensures the attainment of human perfection through knowledge, inner conviction, and practical virtues. Knowledge is substantiated as the initial foundation of moral understanding, belief as the factor that provides spiritual stability to this understanding, and good character as the practical manifestation of the unity of knowledge and belief. It is also demonstrated that good and evil are relative moral categories evaluated from the perspective of human perfection, while moral virtues are formed through conscious practice and the principle of moderation. The article reveals the metaphysical foundations of Avicenna's ethical doctrine and scientifically substantiates that morality is closely connected with human rational nature, ultimate purpose, and essence as a being. The results of the study contribute to a deeper understanding of Ibn Avicenna's philosophy of moral values within the context of contemporary philosophical research.

IBN SINO FALSAFASIDA AXLOQIY QADRIYATLAR PARADIGMASINING SHAKLLANISHI VA UNING METAFIZIK ASOSLARI

Dildor Akmalovna Pulatova*Alfraganus Universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrası professori**falsafa fanlari nomzodi**E-mail: falsafa2009@gmail.com**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ibn Sino, axloqiy qadriyatlar paradigmasi, yaxshilik va yomonlik, amaliy aql, zaruriy amal, shaxs kamoloti, metafizika, fazilat.

Annotatsiy: Mazkur maqolada Ibn Sino falsafasida axloqiy qadriyatlar paradigmasi: ilm – e'tiqod – husni xulq (fazilat) – shaxs kamoloti o'rtasidagi uzviy birlik asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda axloq alohida qoidalar majmuasi sifatida emas, balki insonning bilimi, ichki ishonchi va amaliy fazilatlari orqali kamolotga yetishini ta'minlovchi yaxlit falsafiy tizim sifatida talqin etiladi. Ilm axloqiy anglashning boshlang'ich asosi, e'tiqod mazkur bilishning ma'naviy barqarorligini ta'minlovchi omil, husni xulq esa ilm va e'tiqodning amaliy ifodasi sifatida asoslab beriladi. Shuningdek, yaxshilik va yomonlik shaxs kamoloti nuqtai nazaridan baholanadigan nisbiy axloqiy kategoriyalar ekani, axloqiy fazilatlar esa ongli amaliyot va o'rta me'yor tamoyili asosida shakllanishi ko'rsatib beriladi. Maqolada Ibn Sino axloqiy ta'limotining metafizik asoslari ochib berilgan bo'lib, axloq insonning aqliy tabiati, oliy maqsadi va mavjudot sifatidagi mohiyati bilan chambarchas bog'liq ekani ilmiy jihatdan asoslanadi. Tadqiqot natijalari Ibn Sino axloqiy qadriyatlar falsafasini zamonaviy falsafiy tadqiqotlar kontekstida chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

ФОРМИРОВАНИЕ ПАРАДИГМЫ НРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ФИЛОСОФИИ ИБН СИНЫ И ЕЕ МЕТАФИЗИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ**Дилдор Акмаловна Пулатова***Кандидат философских наук, профессор**Университет Альфраганус**профессор кафедры «Социальные науки»**E-mail: falsafa2009@gmail.com**Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ибн Сина (Авиценна), парадигма нравственных ценностей, добро и зло, практический разум, необходимое действие, личностное совершенство, метафизика, добродетель.

Аннотация: В данной статье проблема нравственных ценностей в философии Ибн Сины анализируется на основе парадигмы органического единства знание – вера – добродетель – личностное совершенство. В

исследовании нравственность рассматривается не как совокупность отдельных норм и правил, а как целостная философская система, обеспечивающая достижение человеческого совершенства через знание, внутреннее убеждение и практические добродетели. Знание обосновывается как исходная основа нравственного постижения, вера – как фактор, обеспечивающий духовную устойчивость данного знания, а благонравие – как практическое выражение единства знания и веры. Также показано, что добро и зло выступают относительными нравственными категориями, оцениваемыми с точки зрения человеческого совершенства, а нравственные добродетели формируются на основе сознательной практики и принципа средней меры. В статье раскрываются метафизические основания нравственного учения Ибн Сины и научно обосновывается, что нравственность тесно связана с разумной природой человека, его высшей целью и сущностью как существующего. Результаты исследования способствуют более глубокому осмыслению философии нравственных ценностей Ибн Сины в контексте современных философских исследований.

Kirish. Axloqiy qadriyatlar masalasi falsafa tarixida eng muhim va bahsli muammolardan biri hisoblanadi. Inson qanday yashashi lozim, yaxshilik va yomonlik nima, axloqiy baholash qanday mezonlarga asoslanadi degan savollar qadimdan mutafakkirlarni qiziqtirib kelgan. Sharq falsafasida mazkur masalalarni chuqur va tizimli ravishda ishlab chiqqan mutafakkirlardan biri Ibn Sinodir.

Ibn Sino axloqni faqat amallar majmuasi yoki odob-axloq qoidalari sifatida emas, balki inson mohiyati, uning aqliy tabiati va oliy kamolotga intilishi bilan bog‘liq murakkab falsafiy masala sifatida talqin qiladi. Uning ta’limotida axloqiy qadriyat insonning maqsadi, ijtimoiy vazifasi va aqliy imkoniyatlari bilan uzviy bog‘langan holda namoyon bo‘ladi. Shu sababli, Ibn Sino axloqiy ta’limoti uning umumiy falsafiy tizimidan, ayniqsa metafizik qarashlaridan ajralgan holda tushunilishi mumkin emas.

Mazkur maqolaning maqsadi Ibn Sino falsafasida axloqiy qadriyat tushunchasining mohiyatini ochib berish, yaxshilik va yomonlik kategoriyalarining shaxs kamoloti bilan bog‘liq jihatlarini tahlil qilish hamda axloqiy ta’limotning metafizik asoslarini yoritishdan iborat.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda Ibn Sinoning axloqiy qadriyatlar haqidagi ta’limotini tahlil qilishda kompleks falsafiy-metodologik yondashuv qo‘llanildi. Avvalo, matnli-tahliliy metod asosida mutafakkirning asosiy asarlari, xususan «Al-Ishorot va-t-tanbihot», «Kitob ash-Shifo», «An-Najot» kabi manbalardagi axloqqa oid g‘oyalar o‘rganildi. Bu orqali yaxshilik va yomonlik, kamolot, amaliy aql va zaruriy amal tushunchalarining mazmuni aniqlandi.

Shuningdek, konseptual tahlil usuli yordamida Ibn Sino axloqiy ta’limotidagi asosiy kategoriyalar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqliklar ochib berildi. Bu jarayonda axloqiy qadriyatlarning insonning oliy maqsadi va metafizik qarashlariga oid jihatlariga alohida e’tibor qaratildi.

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy metod ham qo‘llanilib, Ibn Sinoning axloqiy qarashlari Aristotel, Abu Nasr Farobiy hamda Beruniyning axloqiy qadriyatlar haqidagi g‘oyalari bilan qiyoslangan holda tahlil qilindi. Bu orqali Ibn Sino ta’limotining o‘ziga xos jihatlar va uning falsafa tarixidagi o‘rni aniqlandi.

Bundan tashqari, zamonaviy tadqiqotchilarning ishlari tahlil qilinib, germenevtik yondashuv asosida klassik matnlarning hozirgi falsafiy talqinlari hisobga olindi. Ushbu metodlar majmuasi Ibn Sino axloqiy qadriyatlar falsafasini yaxlit va tizimli ravishda yoritish imkonini berdi.

Adabiyotlar sharhi. Ibn Sinoning axloqiy qadriyatlar haqidagi ta’limoti falsafa tarixida alohida o‘rin tutadi va u ko‘plab zamonaviy tadqiqotlarda chuqur o‘rganilgan. Klassik manbalar orasida avvalo Ibn Sinoning «Al-Ishorot va-t-tanbihot» va «Kitob ash-Shifo» asarlari muhim ahamiyatga ega. Ushbu asarlarda faylasuf insonning oliy maqsadi, kamolot, yaxshilik va yomonlik tushunchalarini axloqiy va metafizik nuqtai nazardan asoslab beradi.

Zamonaviy tadqiqotlarda Ibn Sino axloqiy ta’limoti uning umumiy falsafiy tizimi bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Xususan, P. Adamson va F. Benevichning «Avicenna on Moral Goodness» («Ibn Sinoning axloqiy yaxshilik haqidagi ta’limoti») asarida yaxshilik tushunchasining amaliy aql va zaruriy xulosa bilan bog‘liq jihatlar keng yoritilgan. Mualliflar Ibn Sino axloqiy qadriyatlar paradigmasida ijtimoiy vazifa va vaziyatning axloqiy baholashda tutgan o‘rniga alohida e’tibor qaratadilar.

Nicholas Germannning «Avicenna’s Ethical Theory» («Ibn Sinoning axloqiy nazariyasi») asarida esa yaxshilik va yomonlikning inson maqsadi va ijtimoiy vazifasiga nisbatan baholanishi, axloqiy qadriyatlarning nisbiy va bir vaqtning o‘zida obyektiv xususiyatga ega ekani tahlil

qilinadi. Muallif Ibn Sino axloqini psixologiya, metafizika va amaliy falsafa o'rtasidagi bog'liq tizim sifatida talqin qiladi. Shuningdek, Beruniyning qadriyat va qadrlı narsalar haqidagi qarashlari Ibn Sino g'oyalarining keyingi rivojiga ta'sir ko'rsatgani tadqiqot adabiyotlarida qayd etilgan. Aristotel va Abu Nasr Farobiyning o'rta me'yor va fazilatlar haqidagi ta'limotlari esa Ibn Sino axloqiy paradigmasining nazariy manbalari sifatida baholanadi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Ibn Sinoning axloqiy qadriyatlar falsafasi alohida axloq nazariyasi emas, balki uning metafizik, antropologik va gnoseologik qarashlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan yaxlit falsafiy tizim sifatida o'rganilishi lozim.

Muhokama va natijalar. Ibn Sino falsafasida axloqiy qadriyat tushunchasi. Ibn Sino axloqiy qadriyat muammosini tahlil qilishda yaxshilikning mohiyatini aniqlashga alohida e'tibor qaratadi. Uning falsafasida "haqiqiy yaxshilik" tushunchasi bilan inson tomonidan yanglish holda yaxshilik deb qabul qilingan amallar o'rtasida qat'iy farq mavjud [1]. Mazkur farq inson amallarining axloqiy bahosini belgilashda asosiy mezon hisoblanadi.

Ibn Sino ta'limotiga ko'ra, inson ayrim hollarda o'z amaliyotini to'g'ri aqliy tahlil asosida emas, balki noto'g'ri xulosalar natijasida yaxshi deb baholaydi. Bunday holat insonning maqsadlari, individual tabiati va muayyan ijtimoiy muhitda shakllangan qarashlari bilan uzviy bog'liq. Shu sababli, inson tomonidan yaxshilik deb hisoblangan har qanday amal ham haqiqiy axloqiy qadriyatga ega bo'lavermaydi.

Faylasufning fikricha, inson tabiatiga mos keladigan va uning ma'naviy kamolotiga xizmat qiladigan amalgina yaxshi amal sifatida e'tirof etiladi. Ammo, agar inson mazkur amalni noto'g'ri aqliy asoslar orqali "yaxshilik" deb bilsa, u holda bu amal nisbiy yaxshilik darajasida qoladi. Chunki bunday amaliyot insonni haqiqiy kamolotga yetaklovchi sifatlarni shakllantirmaydi. Haqiqiy yaxshilik esa to'g'ri va sog'lom aql yuritish orqali anglanadigan, barcha insonlar uchun umumiy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatdir. Ibn Sino bu masalani zarurlik va imkoniyat mantig'i bilan bog'lab izohlaydi. Uning ta'kidlashicha, to'g'ri fikrlash doimo yagona zaruriy xulosaga olib keladi, zaruriy amal esa umumiy va majburiy xususiyat kasb etadi. Shu sababli, to'g'ri aqliy xulosa asosida amalga oshirilgan harakat haqiqiy yaxshilik sifatida baholanadi [2].

Ibn Sinoning amaliy aql va zaruriy amal haqidagi ta'limotiga ko'ra, insonning ijtimoiy maqomi va vazifasidan kelib chiqib bajariladigan amallar muayyan paytda eng maqbul axloqiy amal hisoblanadi. Zamonaviy tadqiqotchilar Ibn Sinoning amaliy aql va zaruriy amal haqidagi ta'limotini tahlil qilar ekanlar, insonning ijtimoiy vazifasidan kelib chiqib bajariladigan amal muayyan vaziyatda eng to'g'ri axloqiy amal bo'lishini ta'kidlaydilar. Bu holat tadqiqot

adabiyotlarida hukmdorning davlatni himoya qilish maqsadida jangga tayyorgarlik ko'rishini misoli orqali talqin qilinadi [3,4]. Demak, zarurlik axloqiy qadriyatning muhim manbai sifatida namoyon bo'ladi.

Faylasuf axloqiy qadriyatni insonning oliy maqsadi va kamoloti bilan bog'liq holda talqin qiladi. Ibn Sinoning axloqiy ta'limotida "yaxshilik" va "yomonlik" tushunchalari markaziy o'rin tutadi. Ushbu tushunchalar faqat tashqi amallar bilan emas, balki inson mohiyati va uning kamolotga intilishi bilan belgilanadi.

«Al-Ishorot va-t-tanbihot», «Kitob ash-Shifo» asarlarida Ibn Sino:

insonning oliy maqsadi (al-g'oya al-ulyo), kamolot (الكمال), yaxshilik (الخير) va yomonlik (الشر) tushunchalarini bir-biri bilan uzviy bog'lab tahlil qiladi.

Ibn Sino «Al-Ishorot va-t-tanbihot» asarida shunday g'oyani ilgari suradi: الخير هو ما به كمال [5] الشيء، والشر ما به نقصانه أو منعه عن كماله. (O'qilishi: "Al-xoyr huva ma bihi kamalu-sh-shay", val-sharr ma bihi nuqsonuhu av man'uhu an kamalihi". Mazmuni: yaxshilik – narsaning kamoloti u bilan amalga oshadigan sifat, yomonlik esa – kamolotni kamaytiradigan yoki unga to'sqinlik qiluvchi holatdir).

Ibn Sino ta'limotiga ko'ra, yaxshilik inson tomonidan egallanganda uning kamolotiga xizmat qiladigan sifatdir. Aksincha, yomonlik insonni kamolotdan uzoqlashtiradigan, uning rivojiga to'sqinlik qiluvchi holat sifatida tavsiflanadi. Faylasuf bu g'oyani narsaning mohiyati va maqsadi bilan bog'lab, yaxshilikni kamolotga yetaklovchi sabab, yomonlikni esa kamolotni kamaytiradigan yoki uning amalga oshishiga to'sqinlik qiluvchi omil sifatida izohlaydi [6,7]. Shu ma'noda, Ibn Sino uchun axloqiy baholash mezoni insonning oliy maqsadiga yaqinlashishi yoki undan uzoqlashishi bilan belgilanadi. Demak, yaxshilik va yomonlik mutlaq emas, balki shaxs kamoloti nuqtai nazaridan baholanadigan axloqiy kategoriyalardir.

Bu ta'rif psixologik va mantiqiy jihatdan asoslangan. Chunki, Ibn Sino ta'limotida yaxshilik va yomonlik insonning maqsadi bilan bog'liq nisbiy tushunchalar sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, agar inson salomatlikni qadrlasa, salomatlik uning uchun yaxshilik hisoblanadi. Aksincha, agar salomatlik uning maqsadlari doirasiga kirmasa, u holda mazkur holat yaxshilik sifatida baholanmaydi.

Shu bilan birga, Ibn Sino yaxshilikni o'zi uchun istaladigan oliy qadriyat deb hisoblaydi. Boshqa barcha narsalarning qadri esa aynan shu yaxshilikka olib borishi bilan belgilanadi. Mazkur g'oya keyinchalik Beruniyning qadriyat va qadrlil narsalar haqidagi nazariyasida ham rivojlantirilgan [8]. Ibn Sino yaxshilik tushunchasini narsaning mavjudligi bilan ham farqlaydi. Uning ta'limotiga ko'ra, har qanday mavjud narsa borliq jihatidan yaxshidir, ammo bu har bir mavjud narsa axloqiy ma'noda yaxshi sifatga ega degan xulosani anglatmaydi [9]. Demak, borliq

va axloqiy yaxshilik o'rtasida farq mavjud bo'lib, axloqiy qadriyat inson maqsadi va kamoloti bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Ibn Sinoning axloqiy qadriyatlar falsafasining metafizik asoslari. Ibn Sinoning axloqiy qadriyat haqidagi qarashlari uning metafizik ta'limoti bilan uzviy bog'liqdir. U insonni faqat jismoniy yoki psixologik mavjudot sifatida emas, balki aqliy va axloqiy kamolotga intiluvchi ongli mavjudot sifatida talqin qiladi. «Ash-Shifo» va «An-Najot» asarlarida Ibn Sino inson kamolining eng oliy maqsadi aqlning faol shakli bilan bog'liq hayot ekanini ta'kidlaydi. Ana shu nuqtai nazardan u axloqiy va aqliy fazilatlarni bir-biridan ajratmaydi, balki ularni yagona murakkab tizim sifatida ko'radi. Bu tizim insonni oliy kamolotga, ya'ni faol aql bilan aloqa o'rnatish holatiga yetaklaydi [10].

Ibn Sino axloqiy qadriyatni insonda shakllanadigan barqaror holat sifatida ta'riflaydi. Uningcha, bunday holat takrorlanadigan o'xshash amallar natijasida yuzaga keladi. Bu amallar esa insonning ixtiyoriy tanloviga, ya'ni amal qilish yoki tiyilish qarorini ongli ravishda qabul qilishga asoslanadi. Ibn Sino axloqiy fazilatlarni aynan shu ma'noda odat (malaka) va xarakter holati sifatida tushuntiradi [11]. Shu bilan birga, Ibn Sino axloqiy qadriyatni Aristotel va Abu Nasr Farobiy singari o'rta me'yoriy tushunchasi bilan bog'laydi. Unga ko'ra, har bir axloqiy fazilat ikki keskin chegara orasida joylashadi: bir tomonda ortiqchalik, ikkinchi tomonda kamlik turadi. Axloqiy qadriyat aynan shu ikki holat o'rtasidagi eng muvofiq va mutanosib nuqtadir. Bu o'rta me'yorni tanlash insonning irodasi va axloqiy maqsadlarini aks ettiradi. Insonning o'zi ongli ravishda tanlagan va o'zi uchun qadrlidi deb bilgan holat axloqiy fazilatning mohiyatini tashkil qiladi [12].

Zamonaviy tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, Ibn Sino falsafasida axloq alohida va mustaqil soha sifatida emas, balki uning umumiy falsafiy tizimi, ayniqsa metafizik ta'limoti bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Ibn Sino axloqiy masalalarni insonning mavjudot sifatida mohiyati, uning tabiati, aqlning o'rni va inson hayotining oliy maqsadi haqidagi ta'limotidan ajralmagan holda ko'rib chiqadi. Shu bois, uning axloq haqidagi qarashlari butun falsafiy dunyoqarashining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi [13].

Ibn Sino axloqni faqat yaxshi xulq yoki tashqi odob-axloq qoidalari majmuasi sifatida tushuntirmaydi. U axloqiy fazilatlarni insonning kim ekani, uning aqliy tabiati va kamolotga intilishi bilan bog'laydi. Shu ma'noda, inson qanday yashashi kerak degan axloqiy savol Ibn Sinoda inson kim ekani va uning olamdagi o'rni qanday ekani haqidagi metafizik savollardan ajralmagan holda tahlil etiladi [14,15,16]. Shuning uchun zamonaviy tadqiqotchilar Ibn Sino axloqiy fazilatlarni insonning faqat ichki ruhiy holati sifatida emas, balki uning oliy kamolotga, ya'ni faol aql bilan bog'liq hayotga intiluvchi mavjudot ekanini ifodalovchi holat sifatida talqin

qiladilar [17]. Bu nuqtai nazarga ko'ra, axloq Ibn Sino ta'limotida metafizikaning amaliy davomi hisoblanadi: inson qanday yashashi lozimligi haqidagi qoidalar uning olam, mavjudot va aql haqidagi umumiy ta'limotidan kelib chiqadi [18] va mutafakkir axloqiy paradigmasining asosini tashkil etadi. Shu tariqa, Ibn Sino axloqiy qadriyatni iroda, odat, o'rta me'yor va metafizik maqsadlarni o'zaro bog'liq yaxlit falsafiy tizim sifatida asoslab beradi.

Mazkur tadqiqot natijalari Ibn Sino falsafasida axloqiy qadriyatlar paradigmasi: ilm, e'tiqod, husni xulq (fazilat) va shaxs kamoloti o'rtasidagi uzviy birlikka asoslanishini ko'rsatdi. Ushbu paradigmaga ko'ra, axloq alohida qoidalar yoki tashqi xulq-atvor me'yorlari sifatida emas, balki insonning bilimi, ichki ishonchi va amaliy fazilatlari orqali kamolotga yetish jarayonini ifodalovchi yaxlit falsafiy tizim sifatida shakllanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Ibn Sino ta'limotida ilm axloqiy qadriyatlar paradigmasining boshlang'ich asosini tashkil etadi. Ilm orqali inson borliq, maqsad va yaxshilikning mohiyatini anglaydi, to'g'ri aqliy xulosalarga yetadi hamda o'z amaliyotini ongli ravishda baholay oladi. Ammo mazkur bilimlar e'tiqod bilan uyg'unlashmagan taqdirda, ular inson hayotida barqaror axloqiy yo'nalish kasb etmaydi. Shu bois, e'tiqod ilm asosida shakllangan axloqiy tasavvurlarni inson ichki dunyosida mustahkamlaydigan ma'naviy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ilm va e'tiqod birligi husni xulq, ya'ni axloqiy fazilatlarning shakllanishiga zamin yaratadi. Ibn Sino falsafasida fazilat tasodifiy yoki tug'ma holat emas, balki insonning ongli tanlovi va takrorlanuvchi amaliyoti natijasida qaror topadigan barqaror axloqiy sifat sifatida talqin qilinadi. Bu jarayonda inson irodasi, aqliy yetukligi va ma'naviy maqsadlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Tahlillar natijasida aniqlandiki, husni xulq mazkur paradigmada shaxs kamolotiga olib boruvchi asosiy bosqich hisoblanadi. Ilm orqali haqiqatni, e'tiqod orqali ma'naviy barqarorlik va husni xulq, ya'ni fazilat orqali kamolotga erishgan inson o'z mohiyatini ro'yobga chiqaradi. Ibn Sino falsafasida inson kamoloti aqlning yetuk holatiga yaqinlashish, inson tabiatining oliy maqsadini amalga oshirish bilan tavsiflanadi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot natijalari Ibn Sino falsafasida axloqiy qadriyatlar paradigmasi ilm – e'tiqod – husni xulq (fazilat) – shaxs kamoloti birligiga asoslangan yaxlit nazariy model ekanini ilmiy jihatdan asosladi. Axloq bu paradigmada inson bilimi, ichki ishonchi va amaliy fazilatlarining o'zaro uyg'unligi orqali shakllanadigan kamolot jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Olingan natijalar Ibn Sino axloqiy ta'limotini zamonaviy falsafiy tadqiqotlar kontekstida chuqurroq anglash va uning nazariy ahamiyatini ochib berish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Ibn Sino falsafasida axloqiy qadriyatlar paradigmasi shaxs kamolotiga yo‘naltirilgan ilm – e‘tiqod – husni xulq (fazilat) birligi asosida shakllanadi. Faylasuf axloqni insonning oliy maqsadiga yetish yo‘lidagi bosqichma-bosqich kamolot jarayoni sifatida talqin qiladi. Bu jarayonda ilm insonga yaxshilik va yomonlikning haqiqiy mohiyatini anglash imkonini bersa, e‘tiqod mazkur bilishni inson ichki dunyosida barqaror qadriyatga aylantiradi, husni xulq esa ushbu bilim va ishonchning amaliy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ibn Sino ta‘limotida yaxshilik shaxsni kamolotga yetaklovchi fazilat, yomonlik esa uni mazkur maqsaddan uzoqlashtiruvchi holat sifatida izohlanadi. Shu ma’noda, yaxshilik va yomonlik mutlaq tushunchalar emas, balki insonning aqliy darajasi, e‘tiqodiy yo‘nalishi va ijtimoiy vazifasiga nisbatan baholanadigan axloqiy kategoriyalar hisoblanadi. Ilmga asoslanmagan va e‘tiqod bilan mustahkamlanmagan amal haqiqiy axloqiy qadriyat kasb etmaydi.

Ibn Sinoning amaliy aql va zaruriy amal haqidagi ta‘limoti ushbu paradigmada muhim o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, inson muayyan vaziyat va mas‘uliyatdan kelib chiqib, to‘g‘ri aqliy xulosa asosida amal qilgandagina uning xulqi axloqiy fazilat darajasiga ko‘tariladi. Bunday fazilatlar takrorlanuvchi ongli amaliyot natijasida insonda barqaror holat sifatida shakllanib, o‘rta me‘yor tamoyiliga asoslanadi.

Eng muhimi, Ibn Sino axloqni metafizik qarashlardan ajratmaydi. Inson qanday yashashi lozimligi haqidagi axloqiy talablar uning kim ekani, aqlning mohiyati va inson hayotining oliy maqsadi haqidagi umumiy falsafiy ta‘limotdan kelib chiqadi. Shu bois, Ibn Sino falsafasida axloqiy qadriyatlar paradigmasi: ilm – e‘tiqod – husni xulq (fazilat) – shaxs kamolotining o‘zaro uzviy bog‘liqligiga tayangan holda shakllangan yaxlit va mukammal falsafiy tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Adamson P., Benevich F. Avicenna on Moral Goodness. Cambridge: Cambridge University Press, 2023.
2. Adamson P., Benevich F. Avicenna on Moral Goodness. Cambridge: Cambridge University Press, 2023.
3. Adamson P., Benevich F. Avicenna on Moral Goodness. Cambridge: Cambridge University Press, 2023.
4. Germann N. Avicenna’s Ethical Theory. Leiden: Brill, 2020.
5. Ibn Sino. Al-Ishorot va-t-Tanbihot. Qism: al-Hikma al-Amaliyya.– Qohira: Matbaat al-Mashhad al-Husayniy, 1957.
6. Ibn Sino. Al-Ishorot va-t-Tanbihot. Qism: al-Hikma al-Amaliyya.– Qohira: Matbaat al-Mashhad al-Husayniy, 1957.

7. Germann N. Avicenna's Ethical Theory. Leiden: Brill, 2020.
8. Germann N. Avicenna's Ethical Theory. Leiden: Brill, 2020.
9. Adamson P., Benevich F. Avicenna on Moral Goodness. Cambridge: Cambridge University Press, 2023.
10. Gutas D. Avicenna and the Aristotelian Tradition. Leiden: Brill, 1988.
11. McGinnis J. Avicenna. Oxford: Oxford University Press, 2010.
12. Jimenez R. Ethics and Metaphysics in Avicenna's Philosophy. Madrid, 2021.
13. Mattila J. Avicenna on Moral Character and the Metaphysical Foundations of Ethics. Helsinki, 2022.
14. Ibn Sino. Ash-Shifo (al-Ilohiyot). Qohira: al-Hay'a al-misriyya al-amma, 1960;
15. Ibn Sino. An-Najot. Qohira: Matbaat as-sa'ada, 1938.
16. Ibn Sino. Ash-Shifo (an-Nafs). Qohira: al-Hay'a al-misriyya al-amma, 1960.
17. Mattila J. Avicenna on Moral Character and the Mean. Helsinki, 2022.
18. Jimenez R. Ethics and Metaphysics in Avicenna's Philosophy. Madrid, 2021.
19. Jakbarov M. Komil inson g'oyasining tarixiy-falsafiy negizlari (IX-XII asarlar). – Toshkent:Tafakkur, 2011.